




INNOVATIVE WORLD
Ilmiy tadqiqotlar markazi

ZAMONAVIY ILM-FAN VA TA'LIM: MUAMMO VA YECHIMLAR ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA



Google Scholar  zenodo  OpenAIRE



+998335668868

<https://innoworld.net>

2026



**«INNOVATIVE WORLD» ILMIY TADQIQOTLARNI QO'LLAB-
QUVVATLASH MARKAZI**

**«ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOTLAR: MUAMMO VA
YECHIMLAR» NOMLI 2026-YIL № 3-SONLI ILMIY, MASOFAVIY,
ONLAYN KONFERENSIYASI**

**ILMIY-ONLAYN KONFERENSIYA TO'PLAMI
СБОРНИК НАУЧНЫХ-ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЙ
SCIENTIFIC-ONLINE CONFERENCE COLLECTION**

Google Scholar



ResearchGate

zenodo



ADVANCED SCIENCE INDEX



Directory of Research Journals Indexing

www.innoworld.net

O'ZBEKISTON-2026

RAQAMLI IQTISODIYOT**Salimov Aziz Farxod o'g'li**

Qarshi davlat texnika universiteti Shahrisabz oziq-ovqat muxandisligi fakulteti talabasi.

salimovaziz28101990@gmail.com**Uraqtosheva Marjona Nomoz qizi**

Qarshi davlat texnika universiteti Shahrisabz oziq-ovqat muxandisligi fakulteti talabasi.

marjonauraqtosheva@gmail.com**Luqmonova Mehribon Raxmatullo qizi**

Qarshi davlat texnika universiteti Shahrisabz oziq-ovqat muxandisligi fakulteti talabasi.

luqmonovamehribon90@gmail.com**Ismoilova Yulduz Shavkat qizi**

Qarshi davlat texnika universiteti Shahrisabz oziq-ovqat muxandisligi fakulteti talabasi.

yulduzismoilova39@gmail.com

Annotatsiya: Raqamli iqtisodiyot moliyaviy xizmatlar, davlat boshqaruvi, biznes jarayonlari va ijtimoiy rivojlanishga ta'sir ko'rsatuvchi global iqtisodiy o'sishning asosiy omiliga aylandi. O'zbekistonda "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida raqamli transformatsiya islohotlari faol amalga oshirilmoqda. Ushbu tadqiqotning maqsadi O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot rivojlanishining hozirgi holatini tahlil qilish, muammolarni aniqlash va kelajak istiqbollarini o'rganishdan iborat. Tadqiqotda qiyosiy tahlil, rasmiy statistik ma'lumotlar va tizimli tahlil usullari qo'llaniladi. Natijalar asosida mamlakatda raqamli transformatsiya samaradorligini oshirish bo'yicha siyosat bo'yicha tavsiyalar berildi.

Kalit so'zlar: Raqamli iqtisodiyot, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, innovatsiyalar, elektron hukumat, raqamli infratuzilmalar, raqamli platfotmalar, onlayn to'lov tizimlari.

Abstract: The digital economy has become a key factor in global economic growth, affecting financial services, public administration, business processes and social development. Digital transformation reforms are being actively implemented in Uzbekistan within the framework of the "Digital Uzbekistan – 2030" strategy. The purpose of this study is to analyze the current state of development of the digital economy in Uzbekistan, identify problems and study future prospects. The study uses comparative analysis, official statistical data and systematic analysis methods. Based on the results, policy recommendations were made to increase the effectiveness of digital transformation in the country.

Keywords: Digital economy, information and communication technologies, innovations, e-government, digital infrastructures, digital platforms, online payment systems.

Аннотация: Цифровая экономика стала ключевым фактором глобального экономического роста, влияя на финансовые услуги, государственное управление, бизнес-процессы и социальное развитие. Реформы цифровой трансформации активно реализуются в Узбекистане в рамках стратегии «Цифровой Узбекистан – 2030». Целью данного исследования является анализ текущего состояния развития цифровой

экономике в Узбекистане, выявление проблем и изучение перспектив. В исследовании используются сравнительный анализ, официальные статистические данные и методы системного анализа. На основе полученных результатов были разработаны рекомендации по политике, направленной на повышение эффективности цифровой трансформации в стране.

Ключевые слова: Цифровая экономика, информационно-коммуникационные технологии, инновации, электронное правительство, цифровые инфраструктуры, цифровые платформы, системы онлайн-платежей.

Kirish. XXI asrda raqamli iqtisodiyot global iqtisodiy tizimning ajralmas qismiga aylandi. Raqamli texnologiyalar nafaqat ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlarini avtomatlashtirmoqda, balki iqtisodiy munosabatlarning mazmunini tubdan o'zgartirmoqda. Raqamli transformatsiya natijasida ma'lumot (data) strategik resursga aylanishi, innovatsion platformalar paydo bo'lishi va tarmoq effektlarining kuchayishi kuzatilmoqda. "The Digital Economy" asarida raqamli iqtisodiyotning asosiy xususiyati sifatida bilim va axborotning ustuvor ahamiyat kasb etishi ta'kidlanadi. Iqtisodchilarning fikriga ko'ra, yangi iqtisodiyotning markazida "raqamli tarmoqlar orqali bog'langan intellektual kapital" turadi. Bu jarayon an'anaviy sanoat iqtisodiyotidan bilimga asoslangan iqtisodiyotga o'tishni anglatadi. Shuningdek, "Platform Revolution" kitobida platforma biznes modellari iqtisodiyotning yangi drayveri sifatida ko'rsatiladi. Platformalar ishlab chiqaruvchi va iste'molchilarni bevosita bog'lab, tranzaksiya xarajatlarini kamaytiradi hamda bozor samaradorligini oshiradi. Ular qiymat yaratish jarayonini markazlashtirish o'rniga tarmoq orqali kengaytiradi. Bugungi kunda elektron savdo, fintech va onlayn xizmatlarning tez rivojlanishi aynan platforma iqtisodiyoti bilan bog'liq.

Raqamli iqtisodiyotning yana bir muhim jihati — texnologik innovatsiyalarning ishlab chiqarish omillariga ta'siri hisoblanadi. "The Fourth Industrial Revolution" asarida sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar (Big Data), robototexnika va IoT (Internet of Things) kabi texnologiyalar to'rtinchi sanoat inqilobining asosi ekani ta'kidlanadi. Ushbu texnologiyalar iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, biroq mehnat bozorida strukturaviy o'zgarishlarni ham keltirib chiqaradi. O'zbekiston ham raqamli iqtisodiyotga o'tish strategiyasini faol amalga oshirmoqda. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida elektron hukumat xizmatlari kengaytirilmoqda, IT-parklar tashkil etilmoqda, raqamli to'lov tizimlari rivojlantirilmoqda. Bu jarayon iqtisodiy o'sishni tezlashtirish, korrupsiyani kamaytirish va davlat boshqaruvi samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Biroq, ilmiy manbalarda qayd etilishicha, raqamli transformatsiya muvaffaqiyati faqat texnologiyalarga emas, balki institutsional muhit, inson kapitali va kiberxavfsizlik darajasiga ham bog'liq. Raqamli savodxonlikning yetarli emasligi, hududlar o'rtasidagi raqamli tafovut (digital divide), ma'lumotlarni himoya qilish muammolari va malakali IT-mutaxassislar yetishmasligi rivojlanayotgan davlatlar uchun asosiy to'siqlardan biridir. Shu bois, O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish jarayoni nafaqat texnik

modernizatsiyani, balki ta'lim tizimini isloh qilish, innovatsion ekotizimni shakllantirish va kiberxavfsizlikni mustahkamlashni ham talab etadi. Mazkur tadqiqotning maqsadi O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotning rivojlanish darajasini tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va samarali takliflar ishlab chiqishdan iborat.


Asosiy qism: So'nggi yillarda iqtisodiyotni rivojlantirishda ilg'or texnologiyalar va innovatsiyalar hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy texnologiyalarning ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlariga joriy etilishi biznes samaradorligini oshiradi, resurslardan foydalanishni optimallashtiradi hamda raqobat ustunligi yaratadi. Texnologiyalar taraqqiyoti natijasida inson faoliyatining deyarli barcha sohalarida an'anaviy yondashuvlar transformatsiyalanib, yangi boshqaruv va axborot almashish uslublari shakllanmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) keng qo'llanilishi global iqtisodiyotda tub o'zgarishlarga sabab bo'ldi va natijada raqamli iqtisodiyot tushunchasi shakllandi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari insonlar o'rtasidagi masofa va vaqt chegaralarini yo'q qilgan holda, yangi turdagi iqtisodiy munosabatlar, elektron tijorat, masofaviy xizmatlar va raqamli kommunikatsiyalarni yaratdi. Bugungi kunda raqamli iqtisodiyot global iqtisodiyotning eng tez sur'atlar bilan o'sayotgan segmentlaridan biri sanaladi. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi ishlab chiqarishning avtomatlashtirilishi, raqamli boshqaruv tizimlari, elektron to'lovlar, sun'iy intellekt va mobil texnologiyalar kabi yo'nalishlar bilan chambarchas bog'liq. Shu bois raqamli iqtisodiyot endi yakuniy maqsad emas, balki iqtisodiy samaradorlikni oshirish, xalqaro bozorlarga chiqish va ijtimoiy xizmatlar sifatini oshirishning muhim vositasiga aylangan. O'zbekiston uchun ham jahon iqtisodiyoti globallasuvi sharoitida raqamli texnologiyalarni rivojlantirish strategik ahamiyatga ega. Raqamli iqtisodiyot mamlakatning uzoq muddatli raqobatbardoshligini ta'minlaydi, bozor mexanizmlarini takomillashtiradi va yangi ish o'rinlari yaratadi. Biroq mamlakatda raqamli iqtisodiyot sohasini rivojlantirishda ikki asosiy muammo mavjud: telekommunikatsiya infratuzilmasini yetarli darajada rivojlanmaganligi va malakali kadrlar taqchilligi. Agar bu masalalar tizimli hal etilmasa, raqamlashtirish jarayonlarida sustlashuv yuz berishi ehtimoldan xoli emas.

Mazkur muammolarni bartaraf etish va raqamli iqtisodiyot uchun qulay shart-sharoit yaratish maqsadida O'zbekistonda so'nggi yillarda bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Jumladan:

- 2018-yil 3-iyul, PQ-3832-son Farmon — "O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida";
- 2018-yil 21-noyabr, PQ-4022-son Qaror — "Raqamli infratuzilmani modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida";
- Blokcheyn texnologiyalarini joriy etish va mazkur yo'nalishda malakali mutaxassislar tayyorlashga doir qarorlar.

Bu hujjatlar raqamli infratuzilmani mustahkamlash, elektron hukumat tizimlarini takomillashtirish, Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida

kadrlar salohiyatini oshirish hamda innovatsion texnologiyalarni iqtisodiyotga jadal tatbiq etish uchun huquqiy asos yaratdi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, raqamli iqtisodiyotning muvaffaqiyatli rivojlanishi nafaqat davlat dasturlari, balki xususiy sektor faolligi, xalqaro tajriba almashinuvi va aholining raqamli savodxonligini oshirish bilan bevosita bog'liqdir. Quyidagi grafik esa yillik statistik ma'lumotlariga ko'ra, internet qamrovining o'sib borish foiz ko'rsatkichlarini ko'rsatmoqda:



Ushbu grafikda ko'rinib turibdiki, so'nggi yillarda O'zbekistonda internet tarmog'i barqaror rivojlanish sur'atlariga ega. Davlat statistikasi ma'lumotlariga ko'ra yillik o'sish dinamikasi 2021-yilda 76,6% , 2022-yilda 83,9% , 2023-yilda 89,0% , 2024-yilda 93,3% , 2025-yilda (yanvar-avgust) kelib 94,2% ga yetdi. Ushbu o'sish 2021-yildan 2025-yilgacha umumiy 17,6 foizlik ko'tarilishni ifodalaydi, bu respublikamizda raqamli texnologiyalarning joriy etilishining samaradorligini tasdiqlaydi. 2025-yilning birinchi sakkiz oyligidagi asosiy ko'rsatkichlar foydalanuvchilar soni bo'yicha:

- Umumiy internet foydalanuvchilari: 27,2 milliondan ziyod;
- Mobil internet abonentlari: 25,3 milliondan ortiq;
- Aholining internet bilan qamrov darajasi: 94,2% ni tashkil etdi.
- Infratuzilma taraqqiyoti bo'yicha:
- Mobil internet qamrovi: Aholi yashash punktlarining 95% qamrab olingan;
- Tezkor internet: 54% uy xo'jaliklarida mavjud.

Xalqaro reytingdagi ko'rsatkichlar 2025-yil fevral oyida O'zbekiston mobil internet tezligi bo'yicha xalqaro reytingda 5 o'rin yuqorilagan holda 68-pog'onani band etganini ko'rsatmoqda. Ammo, simli internet tezligi bo'yicha bir pog'onaga tushib ketdi, bu yo'nalishda takomillashtirish uchun hali ham imkoniyatlar saqlanib qolganligini anglatadi. Global internet statistikasida 2022-yil soni holatiga ko'ra:

- Jami internet foydalanuvchilari: 5,3 milliard kishi
- Aholining internet bilan qamrov darajasi: 66%

- Pandemiya davridagi o'sish: 2020-yilda 10% o'sish ro'y berganligi ko'rib chiqildi.

O'zbekistonda internet qamrovi global o'rtachadan (66%) ancha yuqori bo'lib, 94,2% ni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich bilan O'zbekiston rivojlanayotgan davlatlar qatorida yetakchi pozitsiyalardan biriga ega. Mobil internetning keng tarmog'i va tezkor internetning joriy etilishi aholining raqamli xizmatlar bilan ta'minlanish darajasini sezilarli darajada oshirmoqda. Statistik ma'lumotlar O'zbekistonning raqamli o'zgarish yo'lida muhim muvaffaqiyatlarga erishayotganini ko'rsatadi, lekin internet sifatini oshirish bo'yicha tadbirlar davom etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi raqamli iqtisodiyotini yanada rivojlantirish maqsadida barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta'lim, sog'liqni saqlash va qishloq xo'jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha ko'plab chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu masalalarning nihoyatda dolzarbligi tufayli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5- oktyabrda PF-6079 sonli "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni qabul qilinib, uning asosida bu yo'nalishlardagi barcha ishlar tizimli olib borilmoqda. "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasi iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha va davlat boshqaruvi tizimining jadal raqamli rivojlanishini ta'minlash, shu jumladan elektron davlat xizmatlarini ko'rsatish mexanizmlarini yanada takomillashtirish maqsadida ishlab chiqilgan. Strategiya O'zbekiston Respublikasining raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo'nalishlari hamda o'rta va uzoq muddatli istiqbolli vazifalarini belgilaydi, shuningdek, BMTning barqaror rivojlanish maqsadlari va elektron hukumatni rivojlantirish reytingida belgilangan ustuvor vazifalardan kelib chiqib, raqamli texnologiyalarni yanada keng joriy etish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Raqamli iqtisodiyot bugungi kunda davlat boshqaruvi, biznes jarayonlari, ijtimoiy xizmatlar va kundalik hayotning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. O'zbekiston ham "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya qilish, elektron hukumat tizimini rivojlantirish, elektron tijoratni kengaytirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish bo'yicha qator islohotlarni amalga oshirmoqda. Biroq raqamli iqtisodiyotga to'liq o'tish jarayonida bir qator tizimli muammolar mavjud bo'lib, ularning bartarafi iqtisodiy o'sish va samaradorlikni oshirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Quyida ushbu muammolar chuqur tahlil qilinadi:

- Raqamli infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi:

Raqamli iqtisodiyotning poydevori — barqaror va tezkor internet. O'zbekistonda optik tolali tarmoqlar kengaytirilayotgan bo'lsa-da, qishloq hududlarida internet sifati pastligicha qolmoqda. Mobil internet tezligi hududlar bo'yicha katta farq qiladi. Bu esa onlayn ta'lim, elektron davlat xizmatlari va elektron tijoratning ommalashuvini sekinlashtiradi.

- Aholining raqamli savodxonligi pastligi:



Raqamli transformatsiyaning asosiy harakatlantiruvchi kuchi — fuqarolarning IT ko'nikmalari. Ammo aholining katta qismi elektron imzo, onlayn to'lovlar, davlat xizmatlaridan foydalanish bo'yicha yetarli bilimga ega emas. O'qituvchilar, davlat xizmatchilari va kichik biznes vakillari o'rtasida raqamli ko'nikmalarni oshirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

- Kiberxavfsizlik va ma'lumotlarni himoya qilishdagi muammolar:

Raqamli iqtisodiyotni kengaytirish kiberxavfsizlik risklarini oshiradi. O'zbekistonda ko'plab davlat idoralari, banklar va tashkilotlarda axborotlarni to'liq himoya qilish tizimi yetarli darajada shakllanmagan. Foydalanuvchilarning shaxsiy ma'lumotlari bilan bog'liq tahdidlar, onlayn firibgarlik holatlari hamon yuqori darajada qolmoqda.

- Davlat xizmatlarining to'liq integratsiya qilinmaganligi:

Elektron hukumat tizimi jadal rivojlanmoqda, biroq ayrim davlat xizmatlari qisman raqamlashtirilgan, ko'plab ma'lumotlar bazalari o'zaro integratsiya qilinmagan. Natijada fuqarolar bir xizmatni olish uchun hamon bir necha idoraga murojaat qilishga majbur bo'ladi. Bu esa raqamlashtirishdan ko'zlangan samaradorlikni kamaytiradi.

- Ixtisoslashgan IT mutaxassislar yetishmasligi:

Raqamli iqtisodiyotning asosiy resursi — yuqori malakali kadrlar. O'zbekistonda IT sohasi jadal rivojlanayotgan bo'lsa-da, dasturchilar, tizim administratorlari, kiberxavfsizlik mutaxassislari va analitiklar yetishmaydi. Ta'lim muassasalarida amaliyotga asoslangan o'quv dasturlarining kamligi bu jarayonni sekinlashtirmoqda.

- Raqamli tengsizlik muammosi:

Shahar va qishloq aholisi o'rtasida internet sifati, gadjetlardan foydalanish imkoniyati, elektron xizmatlardan foydalanish darajasi bo'yicha sezilarli farq mavjud. Bu esa raqamli iqtisodiyotning inklyuziv rivojlanishiga to'sqinlik qiladi.

- Onlayn to'lovlar bo'yicha ishonchning pastligi:

Elektron to'lovlar tizimi kengayib borayotgan bo'lsa-da, aholining bir qismi firibgarlikdan qo'rqib, onlayn to'lovlarni to'liq qo'llamaydi. Bu elektron tijoratning tez o'sishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotga o'tish bo'yicha salmoqli natijalar qo'lga kiritildi, biroq yuqorida sanab o'tilgan muammolar hali ham dolzarbdir. Ularni bartaraf etish uchun raqamli infratuzilmani yanada kengaytirish, axborot xavfsizligi standartlarini kuchaytirish, aholining IT savodxonligini oshirish, biznesni qo'llab-quvvatlash va normativ-huquqiy bazani takomillashtirish zarur. Ushbu vazifalarning samarali amalga oshirilishi O'zbekistonning raqamli iqtisodiyotga muvaffaqiyatli integratsiyasini ta'minlaydi. Iqtisodiyotdagi raqamli muammolarni hal qilish infratuzilmani yaxshilash, hamkorlikni rivojlantirish va raqamli o'tishni qo'llab-quvvatlovchi siyosatni ishlab chiqishni o'z ichiga oladi. Asosiy yechimlar orasida, ayniqsa, qishloq joylarida yuqori tezlikdagi internetga ulanishni kengaytirish va maxfiylik muammolarini hal qilishda ma'lumotlar oqimini rag'batlantiradigan siyosatni amalga oshirish kiradi. Bundan tashqari, ta'lim va ishchi kuchini tayyorlash orqali ko'nikmalardagi bo'shliqni bartaraf etish

va texnologiyadan mas'uliyatli va barqaror foydalanishni rag'batlantirish dolzarb vazifalardan biridir.

Raqamli iqtisodiyotga o'tish jarayonida mavjud muammolarni samarali bartaraf etish uchun quyidagi ustuvor yo'nalishlarda chora-tadbirlar amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir:

- Infratuzilma va ulanishni rivojlantirish

Internetga kirishni kengaytirish: Barcha hududlarda arzon, tezkor va barqaror internet xizmatlarini ta'minlash uchun hukumat va xususiy sektor o'rtasida samarali hamkorlikni kuchaytirish zarur.

Texnologik infratuzilmani takomillashtirish: Raqamli iqtisodiyotning o'sishini qo'llab-quvvatlash maqsadida mustahkam texnik baza yaratish, optik tolali tarmoqlarni kengaytirish va ma'lumotlar markazlarini modernizatsiya qilish muhim ahamiyatga ega.

- Siyosat va boshqaruvni takomillashtirish

Qo'llab-quvvatlovchi siyosatlarni yaratish: Ma'lumotlar oqimi, raqamli xizmatlar, elektron savdo va innovatsion biznes modellar uchun aniq, izchil va zamonaviy tartibotlarni ishlab chiqish zarur.

Ma'lumotlar siyosatidagi parchalanganlikni bartaraf etish: Xalqaro hamkorlikni rivojlantirish va transchegaraviy ma'lumot almashinuvi uchun yagona yondashuvlarni joriy etish muhim.

Raqamli xizmatlarga kirish xarajatlarini kamaytirish: Aholi uchun keng polosali internet narxini arzonlashtirish, masalan, ijtimoiy tariflar yoki soliqlarni kamaytirish orqali raqamli tenglikni oshirish mumkin.

- Ko'nikmalar va ishchi kuchini rivojlantirish

Butun umr davomida ta'limni rag'batlantirish: Texnologiyalar tez sur'at bilan yangilanib borayotgani sababli uzluksiz o'rganish va qayta tayyorlash tizimlarini shakllantirish, zamonaviy mehnat bozori talablariga moslashish uchun zarur.

Manfaatdor tomonlarni jalb etish: Hukumat, xususiy sektor, ta'lim muassasalari va jamoat tashkilotlari o'rtasida yaqin hamkorlik raqamli kompetensiyalarni shakllantirish, innovatsion tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash va barqaror ekotizim yaratishga xizmat qiladi.

Raqamli savodxonlikni oshirish: Aholi va korxonalar o'rtasida kompyuter va internetdan samarali foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish, ayniqsa yoshlar va kichik biznes vakillari uchun treninglar tashkil etish raqamli iqtisodiyotda ishtirokni oshiradi.

- Innovatsiya va barqaror rivojlanishni qo'llab-quvvatlash

Raqamli platformalardan foydalanishni kengaytirish: Bozor ishtirokchilari o'rtasidagi axborot almashinuvi, logistika jarayonlari va yangi biznes modellarini yaratishda raqamli platformalarning o'rni katta. Ularning keng joriy etilishi innovatsion ekotizimni kuchaytiradi va iqtisodiy operatsiyalar samaradorligini oshiradi.

Barqaror rivojlanish tamoyillarini qo'llab-quvvatlash: IoT, big data va sun'iy intellekt texnologiyalari energiya sarfini optimallashtirish, uglerod chiqindilarini kamaytirish va resurslardan samarali foydalanish imkonini beradi.



Aylanma iqtisod tamoyillarini joriy etish: Elektron qurilmalar iste'moli ortib borayotgan bir paytda e-chiqindilar muammosi kuchaymoqda. Foydalanilgan qurilmalarni yig'ish, ma'lumotlarni xavfsiz o'chirish, ularni qayta ishlash va qayta taqsimlash ekologik xavflarni kamaytiradi, resurslardan samarali foydalanishni va raqamli iqtisodiyotni oshiradi.

Tadqiqot metodikasi: Tadqiqot metodikasi sifatida tizimli, statistik va qiyosiy tahlil usullari qo'llanildi. O'zbekistonning raqamli iqtisodiyot ko'rsatkichlari internet foydalanuvchilari soni, mobil qamrov va yuqori tezlikdagi internet ulushi rasmiy statistika asosida o'rganildi. Grafik va jadval ko'rinishida o'sish tendensiyalari tasvirlandi. Shuningdek, muammolarni aniqlash va sabablarini o'rganish uchun kvalitatif tahlil amalga oshirildi. Tadqiqot natijalariga asoslanib, mamlakatda raqamli transformatsiya samaradorligini oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi.

Adabiyotlar sharhi: Tadqiqot davomida O'zbekiston va jahon tajribasidagi raqamli iqtisodiyot, platforma iqtisodiyoti, innovatsion texnologiyalar va ularning iqtisodiy rivojlanishga ta'siri bo'yicha turli manbalardan foydalanildi. G.M. Porsaev, B.SH. Safarov va D.Q. Usmanova "Raqamli iqtisodiyot asoslari" darsligi (Samarqand davlat universiteti, Toshkent, 2020) raqamli iqtisodiyot tushunchalari, infratuzilma va raqamli transformatsiya asoslarini tushuntirishda asosiy manba bo'ldi. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi mamlakatdagi raqamli iqtisodiyot rivojlanishining amaliy yo'nalishlari va ustuvor maqsadlarini o'rganishda qo'llanildi. Don Tapscottning "The Digital Economy" (1995) va Klaus Schwabning "The Fourth Industrial Revolution" (2016) asarlari global raqamli iqtisodiyotning jarayonlari, platforma iqtisodiyoti va texnologik innovatsiyalarning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri bo'yicha nazariy asos berdi. Shuningdek, Geoffrey G. Parker, Marshall W. Van Alstyne va Sangeet Paul Choudary "Platform Revolution" (2016) kitobi platforma biznes modellari va ularning raqamli iqtisodiyotdagi rolini tahlil qilish uchun ishlatildi. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi tomonidan taqdim etilgan rasmiy statistik ma'lumotlar (Toshkent, 2023) raqamli iqtisodiyot ko'rsatkichlarini baholashda asos bo'ldi. Bundan tashqari, <https://lex.uz> va <https://www.uzdaily.uz/> saytlaridagi qonunchilik va so'nggi yangiliklar tadqiqot jarayonida qo'shimcha ma'lumot manbai sifatida ishlatildi.

Tadqiqot natijalari : Tadqiqot natijalariga ko'ra, O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot sohasida sezilarli o'sish kuzatilmoqda. 2021–2025-yillarda internet foydalanuvchilari soni 20,5 milliondan 27,2 milliongacha o'sdi, mobil internet foydalanuvchilari esa 18 milliondan 25,3 millionga yetdi. Aholining internetdan foydalanish ulushi 80% dan 94,2% ga ko'tarildi, mobil internet qamrovi 85% dan 95% gacha o'sdi, yuqori tezlikdagi internet ulushi esa 35% dan 54% gacha oshdi. Shu bilan birga, ba'zi hududlarda telekommunikatsiya infratuzilmasi yetarli emasligi va malakali kadrlar soni kamligi raqamli xizmatlarning samaradorligini cheklamoqda. Natijalar asosida, mamlakatda raqamli transformatsiyani yanada kengaytirish, infratuzilmani rivojlantirish va malakali kadrlarni tayyorlash bo'yicha aniq va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Xulosa. O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha so'nggi yillarda katta natijalarga erishilmoqda. Zamonaviy AKT texnologiyalarining joriy etilishi iqtisodiyot, davlat boshqaruvi va ijtimoiy xizmatlarning samaradorligini oshirib, yangi biznes modellarning shakllanishiga zamin yaratmoqda. Internet qamrovi va raqamli infratuzilmaning jadal kengayishi, xususan, aholi orasida 94,2 foizlik qamrov darajasiga erishilganligi mamlakatda raqamli transformatsiyaning keng ko'lamda olib borilayotganini tasdiqlaydi. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi bu boradagi islohotlarning tizimli asosini yaratib, davlat xizmatlari, ta'lim, sog'liqni saqlash va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarini raqamlashtirish uchun aniq yo'nalishlarni belgilab berdi. Biroq, raqamli rivojlanish jarayonida bir qator tizimli muammolar — infratuzilmaning hududlar bo'yicha notekis rivojlanishi, raqamli savodxonlikning pastligi, IT mutaxassislar tanqisligi, kiberxavfsizlikda zaifliklar va raqamli tengsizlik hali ham dolzarbligicha qolmoqda. Ushbu masalalarni hal etish uchun internet infratuzilmasini modernizatsiya qilish, kadrlar tayyorlash tizimini kuchaytirish, ma'lumotlar xavfsizligini mustahkamlash, elektron hukumat tizimlarini to'liq integratsiya qilish hamda biznesni qo'llab-quvvatlash bo'yicha izchil chora-tadbirlar zarur. Raqamli iqtisodiyotga o'tishda innovatsiyalarni joriy etish, barqaror rivojlanishni qo'llab-quvvatlash, yangi texnologiyalardan samarali foydalanish va aholining raqamli kompetensiyalarini oshirish hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Raqamli infratuzilmani kengaytirish va ma'lumotlar boshqaruvini takomillashtirish orqali O'zbekiston global raqamli maydonda raqobatbardosh o'rin egallashi mumkin. Shu bois, davlat va xususiy sektor hamkorligi, xalqaro tajriba almashinuvi hamda aholining faol ishtiroki kelgusi bosqichdagi muvaffaqiyatning asosiy omillari bo'lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. G.M. Porsaev, B.SH. Safarov, D.Q. Usmanova "Raqamli iqtisodiyot asoslari" (darslik) Samarqand davlat universiteti. Toshkent – 2020 .
2. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi.
3. Don Tapscott – "The Digital Economy: Promise and Peril in the Age of Networked Intelligence" (1995)
4. Geoffrey G. Parker, Marshall W. Van Alstyne, Sangeet Paul Choudary – "Platform Revolution" (2016)
5. Klaus Schwab – "The Fourth Industrial Revolution" (2016)
6. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Rasmiy statistik ma'lumotlar to'plami. – Toshkent, 2023.
7. <https://lex.uz>
8. <https://www.uzdaily.uz/>

